

## ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIY KONFLIKT

*Xayrullayeva Saida A'zamjonovna*

*Samarqand davlat universiteti,*

*filologiya fakulteti 2-kurs talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Nasirov Azimidin,*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori*

**Annatsiya:** Mustaqillik yillariga kelib nasrioy asarlarning poetik xususiyatlarida turfa xil talqinlar, falsafiy mushahadorlik, insonni anglash va talqin etish usullari yangilanib bormoqda. Shu jihatdan Isajon Sultonning bu hikoyasida ham insonni anglash jarayonidagi murakkabliklar, falsafiy ifodasini topganligi alohida qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiylik, tasvir, yangilik, intilish, tasavvur, mahorat, hayotiylik, ijodkorlik, murakkablik, ezgulik, talqinlar.

## ИСАДЖАН СУЛТАН ИСТОРИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ

### КОНФЛИКТ

*Хайруллаева Саида А'замжоновна*

*Самаркандский государственный университет,*

*студентка 2 курса филологического факультета.*

*Nauchniy rukovoditel: A.Nasirov*

**Аннотация:** К годам независимости в поэтических чертах прозаических произведений обновляются различные интерпретации, философские взгляды, способы человеческого понимания и толкования. В связи с этим особо

отмечается, что в этом рассказе Исаджона Султана сложности в процессе человеческого понимания нашли философское выражение.

**Ключевые слова:** художественность, образ, новаторство, стремление, воображение, мастерство, жизненная сила, творчество, сложность, добро, интерпретации.

## ISAJAN SULTAN HISTORY ARTISTIC

### CONFLICT

Xairullaeva Saida A'zamjonovna

Samarkand State University,

2nd year student of the Faculty of

Philology.

Nauchniy rukovoditel: A.Nasirov

### **Annotation:**

By the years of independence, various interpretations, philosophical views, ways of human understanding and interpretation are updated in the poetic features of prose works. In this regard, it is especially noted that in this story by Isajon Sultan, the difficulties in the process of human understanding found a philosophical expression.

**Key words:** artistry, image, innovation, aspiration, imagination, mastery, vitality, creativity, complexity, kindness, interpretations.

Istiqlol yillarida iste'dodli adib Isajon Sultonning turafa xil nasriy asarlarida insonni anglash uning murakkab tamoyillari talqini o'z ifodasini topmoqda.

Adibning har bir asarida turfa xil ramzlar, falsafiy talqinlar ifodalanadiki, bu kitobxonni fikrlashga, mulohaza yuritishga undaydi. “Yusuf va Zulayho” hikoyasi nomidanoq odamda qiziqish uyg‘otadi. Negaki, “Yusuf va Zulayho” sharq xalqlari orasida mashhur ishq qissalaridan biridir. Asardagi voqealar Yusuf, Zulayho va choyxonadagilar atrofida, ularning bo‘layotgan voqealarga, hayotiga munosabati orqali ko‘rsatiladi. Yozuvchi ushbu hikoyada inson qismat, taqdiri, fojialarini juda mahorat bilan talqin etgan. Ko‘proq insonning, ichki kechinlari, ruhiy iztiroblari, o‘y-xayollarini ifodalashga intilgan. Yusuf “sharhlovchilar” (choyxonadagi bangilar shunday atalgan) ta’biri bilan aytganda, qullikka mahkum qilingan odam, ya’ni oshiq. Zulayhoni telbalarcha sevadi. Shu boisdan avval turmush qurgani, farzandi borligiga qaramasdan unga uylanadi. Lekin Zulayhoning begona odamga kulishi, uning arobasiga chiqishi uning ilohiy sevgisini o‘lishiga sabab bo‘ladi. Har bir narsaning adog‘iyu, sarhadi bo‘lgani kabi - sevgi deb atalmish mamlakatning chegarasi ham bor. Shundan so‘ng “...Tangri taoloning Zulayhosi tugul, Yusufni ham bir pulga olmaydigan kas bir yon , quyuq daraxtzor ko‘lankasida, qo‘lida ro‘zg‘orxaltasini osiltirib turgan , jufti halolini benihoya yaxshi ko‘radigan Yusuf bir yon” [1, 371-bet] bo‘ladi va shu chog‘da unga bo‘lgan mehri, muhabbati darz ketadi. O‘sha lahzani G‘afur G‘ulom ta’biri bilan aytganda: “Ba’zida bir nafas olgulik muddat, Ming nafas so‘nishi uchun yetgulik” [2,59-bet] - deb izohlash mumkin: Yusufning Zulayhoga bo‘lgan munosabati o‘zgarishiga bir lahza yetarli bo‘ldi. Yusufda psixologik konflikt kuchli. “Aqlim, “Kechirma, bir toygan odam umrini oxirigacha toyadi”, deyapti. Ko‘nglim esa “Kechir”deb faryod uryapti... Nima qilishni bilmayman [1, 372-bet]. Aql qaror qilcan qarorlar bilan ko‘ngil istaklari har doim h bir-biriga mos tushavermaydi. Ba’zan aql tarozisiga qo‘yilgan palla ko‘ngil xohishlaridan ustun keladi. “Miyam “Unday qilma” desa, ko‘nglim “Qil” deb hayqiryapti” [1, 378-bet]. Suyuklisi Zulayho bilan yashay desa, oriyati , yana kamiga odamlarning gap so‘zlari, yashamay desa ko‘ngli yo‘l qo‘ymaydi. Nima qilishni bilmay ikki o‘t orasida qiynaladi. Dunyo uning nazdida, “bir tutam

hashakka aylanib ketdi” [1,378-bet]. Odamlarning xaschalik qadr-qimmati qolmaydi, negaki hayotining mazmuni deb hisoblagan muhabbati puch bo‘lib chiqadi, ishongan, baxti deb o‘ylagan odami esa xiyonat qiladi. Shunda o‘z-o‘zicha baxtni tasavvur qiladi. “Baxt ayoling qo‘llari qizarib-qizarib kiriyvsa, uy supursa, qizigan yog‘lari sachraganida bilaklari dog‘ bo‘lib osh pishirsa, ko‘zidan yosh tirqirab piyoz to‘grasa”. Yusuf baxtni shulardan iborat deb o‘ylaydi. Yusuf eaa bir lahza his qilgan oniy baxtga intiladi, lekin bu baxtni topa olmay, dashtga ketadi, dashtga ham sig‘maydi. Bu bilan hatto Majnunga tenglashtiriladi. Asarda choyxonadagilar har bir odamning xatti-harakatiga “munosabat “ bildiradi. “Baxt uchqunlari chaq nab”, “O‘zlaridan ezgulik taratib” yuradigan insonlar borligini, lekin choyxonada, ko‘zlarida baxt uchquni chaqnagan kishi ko‘rinmaydi, ularning ishi faqat bo‘lar - bo‘lmas gaplarni bir -biriga ma’qullatib, shundan lazzatlanish, yana bir “ xislatlari” “Erman deya ko‘krak kergani , or-nomusdan javragani bilan uyda - xilvatxonada o‘zlarini pokdomon ko‘rsatib, ko‘zlarini mo‘ltimatib ma’sumona yiltillatib, ko‘cha -ko‘yning gaplarini malikai davronlariga oqizmay-tomizmay aytib berisharkan-da” [1, 376-bet]. Ana shunday “xislatlar” ega bu toifa odamlarni boshqalarning oilasiga, ishlariga fikr bildirishga loyiqmi , degan savol tug‘iladi. Lekin shular Yusuf va Zulayhoning hayoti buzilishiga sababchi bo‘ladilar. Negaki ana shunaqalar “Qashshoqmi, bo‘ydoqmi....yoqtirsa yoqtiribdi, el qatori ro‘zg‘or qilib , umrini yashab yuraversin. “Malikalar qullarga turmushga chiqqan, shahzodalar cho‘riga oshiq bo‘lgan” [1, 369-bet]. Bularning barchasi oddiy. Faqat choyxonadagilar tushunmaydi. Ular o‘zi bangi, kunda - shundalar deyilgan. Odamlarning choyxonada tasvirlanishi hikoyaning mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Qadim-qadimlardan ilm markazlari: masjid, madrasa, xonaqoh , maktab, qiroatxona, kutubxonalarga zid ravishda choyxona turadi. Birinchisida odam fikrlashni, ilmni o‘rgansa, dunyoni tushunishga, uning mohiyatini anglashga harakat qilsa, ikkinchisida esa teskarisi. Hikoya davomida Yusuf o‘sha choyxonani yoqib yuboradi. To‘g‘rida, uning bor yo‘q “vazifasi” odamlarning orasiga

sovuqchilik tushurib, oilasini buzadigan, g'iybatxona, bangixona bo'lsa. Boridan ko'ra, yo'qligi ko'proq foyda keltiradi. Zulayhoning hayoti buzilishiga sababchi bo'lgan odam haqida "Bashang bir olifta", "Olamning muhtasham hayoti vakili bo'lmish xo'rozday kekkaygan", "Azozilday basharali" deya muallif nutqi orqali ma'umot beriladi... Ha, Iblisning ishi shunaqa: qutqu-g'uluv solib, keyin achchiq tutunday tarqab-yo'qolib ketadi. Nima bo'lganda ham u shaytoni la'in Yusufning ro'zg'orini rasvoi jahon qilib ketdi" [1, 373-bet]. "Shu tariqa Xudoning ikki bandasi bir diyonatsiz takasaltangning bo'lmag'ur hirs -havasi – yu, befahm kishilar gap-so'zlarining qurboni bo'lib ketaverishibdi" [1, 381-bet]. Yozuvchi bu hikoya orqali odamlarning har xil gap-so'zlariga e'tibor bermaslik, inson o'z tanlagan odamini tushunib, oxirigacha qo'llab-quvvatlab yashashi lozimligini, zeroki baxt ot kabi, jilovini bir yo'qotsa, qaytib tuta olmasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Hikoyani o'zida keltirilgan, teran falsafiy mushohadalarni xulosa sifatida keltirish mumkin: "Hayotda ba'zan shunday ishlar bo'ladiki, yechishga bandasining aqli yetavermaydi. Hayot hikmatlari turmushning o'zi kabi oddiy [1, 369-bet]. Lekin bu oddiy narsani biz-odamlar anglamay, murakkablashtirib, o'z hayotimizni muammolar bilan "bezaymiz". "Kechirish... Kechirmaslik... Bag'rikenglik... Muruvvat... Hoy birodar, umr shamolday yelib o'tib ketadi, olamda sadoqatdan, mehru muhabbatdan qimmatliroq hech nima yo'q, axir! To til so'zga aylanar ekan, bir kulish, bir jilmayish ila bir og'iz shirin so'zingizni aytib qolsangiz-chi? Qarang, tug'ilganingizdan bu yonga o'tgan yillar atigi bir necha soniyaday. Qolgani ham shunday o'tadi. Axir, hammamiz ham odam bolalarimiz, kelamiz-ketamiz, bu yorug' olamda qadr-qimmat ne, ezgulik ne – mulohaza qilsangiz-chi?" [1, 375-bet].

Darhaqiqat, adib asarlaridagi insoniy fazilatlarning badiiy talqini, uning turli xarakter qirralarini ochishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Adibning ramziy majoziy obrazlarida ham o'quvchini anglashga, fikrlashga, tafakkur qilishga undovchi holatlar mavjudligini ham ta'kidlash lozim.

Adabiyotlar:

- 1 . Sulton I. Yusuf va Zulayho. Hikoya. Qarang: Genetik. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2018. – B. 368- 382.
2. G‘afur G‘.Vaqt. She‘r. Qarang: Tanlangan asarlar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012. – B. 59-61.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971. – B. 29.
- 4.Nasirov Azimidin Normamatovich. Features of symbolic interpretation. international journal on orange technologies. том 3. 71-76. 2021.
- 5.Nasirov Azimidin Normamatovich. Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. European journal of molecular & clinical medicine. 7(3. 2020.
- 6.Nasirov Azimidin Normamatovich. Stylistic units and compositional impartiality. theoretical & applied science. 12 (586-571). 2019.
- 7.Azimidin Nasirov. Odil Yoqubovning “Ulug ‘bek xazinasi” romanida badiiy obraz yaratish. Uluslararası türk lehçe arařtırmaları dergisi (türklad). 4(2). 200-20.